

9-dars

Darning mavzusi: Undosh tovushlar va harflar (27 – 30-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarda unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni to'g'ri talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamalash; unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga ajaratish va ko'chirishni, so'zlarni bo'g'in-tovush va tovush-harf jihatdan tahlil qilishni bilish; talaffuz me'yorlariga rioya qilish, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Yoshi ulug'larni qadrlashga o'rgatish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio matnlarini tinglab tushuna olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analiz, mustaqil ish metodi

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Ustoz – otangdek ulug'.*

Uy vazifasini so'rash orqali o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimi aniqlanadi. Qo'shimcha savollar berilib, o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

“So'zni top” o'yini. Alifbodagi raqamlar tartibi bilang o'qing.



Saylanma diktant. Quyida berilgan so'zlar ichida faqat unli harf bilan boshlanadigan so'zlarni yozing: *yozuv, ko'l, sinf, ayiq, ikki, eski, to'rt, sariq, o'qish, oila, sahna, ulkan, olim, qizil.*

27-mashq. Namunaga qarang. Nuqtalar o'rniga berilgan harflardan mosini tanlab, so'zlar yashash kerak.

Namuna: YURAK LUAYK ...RAK YUKLB

...RAK	KTEAX	KERAK	SHAK...	FARUB	SHAKAR
...RAK	LAETV	TERAK	...SHAK	TJOUR	TURSHAK
...RAK	LIXBNZ	ZIRAK	...RAK	LIZYBN	ZIYRAK
...RAK	AVRTQ	VARRAK	...RAK	KUHAR	KURAK

Qoida bilan ishlash:

O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (jurnal), j (jo'ja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

28-mashq og'zaki bajariladi. Rasmga qarab, sh, ch, ng harf birikmalari ishtirokida gaplar tuzish aytiladi. O'quvchilar javoblari tinglanib, o'qituvchi umumlashtiradi.

Quyidagi savollarga jaavob toptiriladi.

1. Undosh tovushlarni sanang.
2. Harflar birikmasi deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday harf birikmalarini bilasiz?
4. Sh va Ch harf birikmalari bo'g'inga qanday ko'chiriladi?

So'ngra o'quvchilar guruhga bo'linadi va 29-mashq bajariladi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi.

1-guruh ishtirokchilari Sh harf birikmasi ishtirok etgan soʻzlarga misollar keltiradilar.

2-guruh ishtirokchilari Ch harf birikmasi ishtirok etgan soʻzlarga misollar keltiradilar.

3-guruh ishtirokchilari Ng harf birikmasi ishtirok etgan soʻzlarga misollar keltiradilar.

Oʻquvchilar javoblari tahlil qilinadi

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida oʻquvchilar joriy darsda oʻzlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. Soʻngra dars davomida faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

30-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi taʼkidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN FAYDALI